

Qutqaruv qayig'i

Siz do'stlaringiz bilan tinch okeanini kesib o'tish uchun sayohat kemasiga chiqdingiz. Hech qaysingizda dengizda sayohat qilish bo'yicha tajriba yo'q. Afsuski, okean o'rtasiga yetganda kemangizda kuchli yong'in boshlandi. Kema kapitani va ekipaj yong'inni o'chirishga urinib halok bo'ldilar. Yaxtaning katta qismi vayron bo'ldi va kema asta-sekin cho'kib bormoqda.

Muhim navigatsiya va radio uskunalari yong'inda ishdan chiqdi; sizning joylashuvingiz noma'lum. Taxminlarga ko'ra siz quruqlikdan minglab kilometr uzoqdasiz.

Siz hozir to'rt kishilik rezina qutqaruv qayig'iga chiqasiz. U yerda bir quti gugurt bor. Qayiqga chiqayotganda yong'indan saqlanib qolgan 15 ta buyumdan ayrimlarini o'zingiz bilan olishingiz kerak.

Vazifa: 15 ta buyumni ularning hayot uchun ahamiyati bo'yicha tartiblang. Eng muhim buyum yoniga 1 raqamini qo'ying, ikkinchi o'ringa — 2 va hokazo (15 gacha).

Buyum nomi	Sizning fikringizcha muhimligi (1)	Farq (3)	Guruhingiz fikriga ko'ra muhimligi (2)	Farq (4)
Kompas				
Soqol olish oynasi				
Chivinga qarshi deraza to'ri				
25 litr ichimlik suvi				
Qurilgan yarim tayyor ovqat				
Dunyoning umumiy xaritasi				
Suzuvchi "yostiqcha"				
10 litr moy&benzin aralashmasi				
Kichik radio-tranzistor				
20 metr kvadrat polietilen-pleyonka (tselofan)				
Akulani qo'rqituvchi uskuna				
Bir shisha aroq				
15 metr sintetik rezinali arqon				
2 quti plitkali shokolad				
Baliq tutish uchun qarmoq				
	Jami farq:	*	Jami farq:	#

Qutqaruv qayig`i

Mutaxasislarning, ya'niy AQSH qurolli kuchlari tuzilmasidagi Sohillarni Qo'riqlash Xizmatining fikriga ko'ra, okean o'rtasida qolgan odam uchun eng muhimi — atrofdagi ehtimoliy odamlarning diqqatini o'ziga jalb qilish va qutqaruvchilar kelguncha tirik qolishdir. Tinch okeanini o'rtasidan oddiy qayiqda quruqlikgacha yo'l taxminan 20 kun davom etadi.

Mutaxasislar fikriga ko'ra, bu holatda navigatsiya buyumlari sizda bor yoki yo'qligi deyarli ahamiyatsiz: chunki qaysi tomonga suzish kerakligini tushuna olsangiz ham, buncha vaqt uchun yetarli ovqat va suvni oddiy qayiqda saqlab bo'lmaydi. Signal vositalarisiz esa sizni topishlari va qutqarishlarining ehtimoli deyarli yo'q.

Ballarni hisoblash tartibi o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. Jami ballar hisoblanganidan keyin quyidagi jadvalga qarang:

Natijalar

Ballar	Baho	Izoh
00–25	A'lo	Siz omon qolish bo'yicha ajoyib ko'nikmalar egasi ekanligingizni ko'rsatdingiz. Omon qoldingiz!
26–32	Yaxshi	O'rtachadan yuqori. Yaxshi omon qolish ko'nikmalari. Katta ehtimol bilan qutqarildingiz!
33–45	O'rtacha	Dengiz kasalligi, ochlik va charchoq sizni toliqtirdi. Ammo tirik holda qutqarildingiz!
46–55	Qoniqarli	Organizmida o'ta xavfli suvsizlanish kuzatiladi! Siz zo'rg'a tirik qolishingiz mumkin. Bu siz uchun juda og'ir bo'ldi, lekin muhimi tiriksiz!
56–70	Yomon	Balki siz qutqarildingiz. Ammo oxirgi daqiqalarda!
71+	Juda yomon	Afsus, sizning qutqaruv qayig'ingiz qidiruv ishlari to'xtatilganidan keyin haftalar o'tib sohilga bo'sh holda chiqdi.

Quyidagi ro'yxat — mutaxassislar fikriga ko'ra buyumlarning hayot uchun ahamiyati bo'yicha tartibi:

Buyum nomi	Hayot uchun ahamiyati	Izoh
Kompas	15	Okean xaritasi, tegishli jadvallar, sekstant va xronometrsiz sizga hozir foydasiz
Soqol olish oynasi	1	Buyumlarning eng muhimi. Borligingiz haqida signal berish uchun eng kuchli vosita. Kunduzgi quyoshda oddiy oyna 6–7 millionta sham quvvatidagi nur hosil qiladi. Oyna qaytargan quyosh nurining aksini hattoki ufqdan narida turib ham ko'rish mumkin.
Chivinga qarshi deraza to'ri	14	Tinch okeani o'rtasida chivin yo'q; bu to'r boshqa boshqa maqsadlar uchun yaroqsiz.
25 litr ichimlik suvi	3	Terlash, gapirish va hojat chiqarishda yo'qotilgan suyuqlik o'rni to'ldirilmasa, bu organizmi o'limga olib kelishi mumkin. Okean suvi ichishga yaroqsiz. 25 litr tejalganida, bir necha kun hayotni saqlashi mumkin.
Quritilgan yarim tayyor ovqat	4	Okean o'rtasida asosiy oziq manbai
Dunyoning umumiy xaritasi	13	Okeanda ekanligingizda, undan chiqish uchun, navigatsiya vositalarisiz mutlaqo befoyda.
Suzuvchi "yostiqcha"	9	Kimdir suvga tushsa, uni qutqarish uchun vositasi sifatida ishlatish mumkin.
10 litr moy&benzin aralashmasi	2	Borligingiz haqida atrofga signal berish uchun ikkinchi eng muhim buyum: Aralashma suv ustida qalqib suzadi va gugurt bilan yoqiladi
Kichik radio-tranzistor	12	Har qanday radio-stansiya qamrovidan tashqarida ekanligingiz uchun mutlaqo keraksiz
20 metr kvadrat polietilen-pleyonka (tselofan)	5	Yomg'ir suvini yig'ib olib ichish, shamol-to'lqindan pana qilish uchun ishlatiladi
Akulani qo'rqituvchi uskuna	10	Akulalarni qo'rqitish uchun 😊
Bir shisha aroq	11	Tarkibida spirt borligi uchun yaralarni dezinfeksiya qilishda ishlatiladi. Boshqachasiga foydasiz. Ichish juda xavfli: aroq organizmni juda tez suvsizlantiradi.
15 metr sintetik rezinali arqon	8	Odamlar yoki jihozlarni bog'lab, suvga tushib ketishning oldini olish mumkin.
2 quti plitkali shokolad	6	Zaxira ovqat
Baliq tutish uchun qarmoq	7	Shokoladdan ko'ra pastroq o'rinda, chunki baliq tutish kafolati yo'q. Qarmoqni chodir ustuni sifatida ishlatilishi mumkin